

“AMUDARYO DAM OLISH MASKANI”DA AHOLI UCHUN KO’NGILOCHAR KONSERT DASTURI DAVOM ETMOQDA



**“AMUDARYO DAM OLISH MASKANI”DA AHOLI UCHUN KO’NGILOCHAR KONSERT
DASTURI DAVOM ETMOQDA**

Xabar berganimizdek, “Guliston” mahallasida joylashgan “Amudaryo dam olish maskani”da har kuni soat 19:00 dan boshlab shahrimiz aholisi va mehmonlar uchun ko’ngilochar madaniy tadbirlar bo’lib o’tmoqda.

Tadbirga mahallalardan tashrif buyurgan ota-onalar o’z farzandlari bilan birga ishtirok etishib, xushovoz xonandalar ijrosidagi kuy-qo’shiqlar, ertak va multfilm qahramonlarining chiqishlari hamda boshqa ko’ngilochar dasturlarni tinglab, maroqli hordiq chiqarishmoqda.

Barchangizni ushbu tadbirga taklif qilamiz keling tomosha qiling va maroqli dam oling!



